

Ibragimov Sodiqjon Sadriddinovich

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

E-mail: sodhaker@gmail.com, tel: +998972553470

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ONLAYN SO'ROVNOMALARDAN
FOYDALANISH: @ONLINE_SUROVNOMA_BOT TELEGRAM BOTI
MISOLIDA**

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim sifatini oshirishda onlayn so'rovnomalardan foydalanish imkoniyatlarini, xususan, Telegram messenjeri orqali amalga oshiriladigan botlar misolida o'rganadi. Tadqiqotda onlayn so'rovnoma ta'lim jarayonidagi ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini yig'ish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlashda samarali vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Telegram botining funksionalligi, uni loyihalash va so'rovnoma tuzish jarayonlari batafsil yoritiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida so'rovnoma natijalarini tahlil qilish va statistik usullar qo'llanilgan. Natijalar onlayn so'rovnomalarning ta'lim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, onlayn so'rovnoma, Telegram bot, raqamli texnologiyalar, fikr-mulohaza, statistik tahlil.

Ибрагимов Содикжон Садриддинович

Преподаватель НОУ «Университет бизнеса и науки»

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОНЛАЙН-ОПРОСОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ
КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ: @ONLINE_SUROVNOMA_BOT НА
ПРИМЕРЕ ТЕЛЕГРАМ-БОТА**

Аннотация: В статье рассматриваются возможности использования онлайн-опросов для повышения качества образования, в частности, с использованием ботов, реализованных через мессенджер Telegram. В исследовании онлайн-опросы рассматриваются как эффективный инструмент сбора обратной связи от участников образовательного процесса, ее анализа и

обработки результатов. Подробно рассмотрен функционал Telegram-бота, его дизайн и процесс создания опроса. Методология исследования включала анализ результатов анкетирования и статистические методы. Результаты показали, что онлайн-опросы играют важную роль в совершенствовании процессов принятия решений в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: качество образования, онлайн-опросы, Telegram-бот, цифровые технологии, обратная связь, статистический анализ.

Ibragimov Sodiqjon Sadriddinovich

Teacher at the University of Business and Science, a non-state higher education
institution

USING ONLINE SURVEYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION: ON THE EXAMPLE OF THE @ONLINE_SUROVNOMA_BOT TELEGRAM BOT

Abstract: *This article examines the possibilities of using online surveys to improve the quality of education, in particular, using bots implemented through the Telegram messenger. The study considers online surveys as an effective tool for collecting feedback from participants in the educational process, analyzing them, and processing the results. The functionality of the Telegram bot, its design, and the processes of creating a survey are described in detail. The research methodology used was the analysis of survey results and statistical methods. The results showed that online surveys are important in improving decision-making processes in educational institutions.*

Keywords: *quality of education, online surveys, Telegram bot, digital technologies, feedback, statistical analysis.*

Kirish

Ta'lim sifatini oshirish zamonaviy ta'lim tizimlarining asosiy maqsadlaridan biridir. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, xususan, onlayn vositalar ta'lim jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Onlayn so'rovnomalar ta'lim

ishtirokchilari – o‘qituvchilar, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini tezkor yig‘ish imkonini beradi. Ushbu so‘rovnomalar ta‘lim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish metodlarini optimallashtirishda qo‘llaniladi.

Telegram messenjeri o‘zining keng tarqalganligi va foydalanuvchilar uchun qulay interfeysi tufayli so‘rovnomalar o‘tkazish uchun samarali platforma sifatida tanlanmoqda. Telegram botlari orqali so‘rovnomalar tuzish va ularni foydalanuvchilarga yetkazish jarayoni avtomatlashtirilgan bo‘lib, bu vaqt va resurslarni tejash imkonini beradi. Ushbu maqolada Telegram botlari orqali onlayn so‘rovnomalarni amalga oshirishning afzalliklari va ushbu jarayonning ta‘lim sifatiga ta‘siri o‘rganiladi.

Maqola quyidagi tuzilishga ega: birinchi bo‘limda adabiyotlar sharhi keltiriladi, keyin tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar, so‘ngra xulosalar va tavsiyalar beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Hozirgi vaqtda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda onlayn so‘rovlardan keng foydalanilmoqda. Agar so‘rovnomalarning anketa shakllari ilgari mashhur bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda bunday so‘rovlarni onlayn formatda o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘ldi. Zamonaviy ta‘lim sharoitida onlayn ta‘limning rivojlanishi, sotsiologik xarakterdagi onlayn so‘rovlar faol qo‘llanilmoqda. Turli xil savollar turlarini kiritish tadqiqotchining vaziyatni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish qobiliyatini kengaytiradi. Turli fanlar bo‘yicha axborotni tahlil qilishda statistikaning eng so‘nggi yutuqlari va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi.

Ta‘lim sohasidagi onlayn so‘rovlarning ba‘zi afzalliklari:

- Foydalanish imkoniyati va qulaylik. So‘rovnomalar ishtirokchilarga ularning geografik joylashuvi yoki ish jadvalidan qat'i nazar tarqatilishi mumkin.
- Dizayn va tarkibdagi moslashuvchanlik. Muayyan o‘quv ehtiyojlariga moslashtirilgan so‘rovnomalar yaratishingiz, savollar formatini tanlashingiz, o‘tish mantig‘ini sozlashingiz va hokazo.
- Tez ma‘lumotlarni tahlil qilish. Avtomatlashtirilgan tahlil natijalarini tezda baholash va asosiy tushunchalarni aniqlash imkonini beradi.

- Axborotning chuqurligi va aniqligi. So'rovlar miqdoriy va sifat ma'lumotlarini to'plash uchun o'rnatilishi mumkin.
- Talabalarning faollik darajasini oshirish. Talabalar o'zlarining fikrlari inobatga olinishini his qiladilar, bu esa o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga, shuningdek, umuman ta'lim jarayoni sifatining oshishiga olib kelishi mumkin.
- O'quv kurslarini tuzatish imkoniyati. O'qituvchi birinchi darsdayoq tinglovchilarning bilim chuqurligini aniqlaydi va kursni ko'rsatilgan natijalarga qarab guruhlariga taqsimlaydi.
- Ilmiy tadqiqotlar uchun ma'lumotlarni yig'ish. So'rovlar pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar sohalarida ma'lumotlarni to'plash uchun ishlatilishi mumkin.

@online_surovnoma_bot telegram boti PHP dasturlash tili yordamida ishlab chiqildi.

Bot quyidagi funksiyalarga ega:

- Foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va identifikatsiya qilish;
- So'rovnoma savollarini taqdim etish (CSV formatida import qilish);
- Individual va guruhlarda so'rovnoma o'tkazish imkoniyati;
- Javoblarni real vaqt rejimida yig'ish va saqlash;
- Ma'lumotlarni (natijalarni) tahlil qilish uchun HTML formatida eksport qilish.

@online_surovnoma_bot dan 3 xil toifadagi foydalanuvchilar foydalanadi:

1. Admin foydalanuvchi (@sodhaker);
2. Moderator foydalanuvchi;
3. Oddiy foydalanuvchi.

Endi yuqorida keltirilgan foydalanuvchilarni botdagi huquqlari haqida batafsil to'xtalamiz.

Admin foydalanuvchi, ya'ni botni loyihalashtirgan inson huquqi:

- Botni takomillashtirish;
- Ma'lumotlar bazasini boshqarish;
- Moderator foydalanuvchini ro'yhatdan o'tkazish;
- So'rovnoma savollarini tuzish;

- So'rovnoma savollarini botga joylash;
- So'rovnoma savollarini yuklab olish;
- So'rovnoma natijalarini yuklab olish;
- So'rovnomani ishga tushirish tartibini belgilash;
- So'rovnomada ishtirok etish.

Moderator foydalanuvchi, admin tomonidan tayinlangan foydalanuvchi huquqi:

- So'rovnoma savollarini tuzish va adminga taqdim etish;
- So'rovnoma savollarini yuklab olish (faqat o'zi tuzgan);
- So'rovnoma natijalarini yuklab olish (faqat o'zi tuzgan);
- So'rovnomani ishga tushirish tartibini belgilash (faqat o'zi tuzgan);
- So'rovnomada ishtirok etish.

Oddiy foydalanuvchi huquqi:

- Botda yoki guruhda admin yoki moderator tomonidan ruxsat etilgan so'rovnomada ishtirok etish.

So'rovnoma savollarini Microsoft Excel dasturida quyidagi namunada keltirilgan jadval ko'rinishida tayyorlanadi va "Surovnoma savol.csv" nom bilan CSV formatda saqlanadi (1-rasm).

	A	B	C	D
1	nom	Savol	Javob	multiple
2	Sinov	O'qituvchi haqida umumiy ma'lumotlar		0
3	Sinov	Jinsingiz?	A) Ayol; B) Erkak	0
4	Sinov	Yoshingiz nechida?	A) 20-35; V) 36-45; S) 46-55; D) 55 dan katta	0

1-rasm. So'rovnoma savollari namunasi.


- 1-ustunda so'rovnoma uchun nom yoziladi;
- 2-ustunda so'rovnoma savollari kiritiladi;

- 3-ustunda berilgan savol uchun javob variantlari kiritiladi (har bir javob bir-biridan “,” belgisi bilan ajratiladi), agar javob varianti kiritilmasa shu qatorning savol ustunidagi ma’lumot so‘rovnomada sarlavha sifatida ko‘rinadi;
- 4-ustunda javoblarni 1 ta yoki bir nechta tanlash imkoniyatini kiritiladi. Agar bir nechta javobni tanlash kerak bo‘lsa 1 qiymat kiritiladi, agar faqat bitta javob tanlash kerak bo‘lsa 0 qiymat kiritiladi.

So‘rovnoma savollarini “Survnomasavol.csv” nom bilan CSV formatda saqlangandan keyin ushbu faylni bot joylashgan serverga admin tomonidan yuklanadi. “Survnomasavol.csv” nomli fayldagi so‘rovnoma savollarni bazaga yuklash uchun botda admin tomonidan so‘rovnoma savollarini bazaga joylash buyrug‘i beriladi. Ushbu so‘rovnomaning o‘tkazish uchun so‘rovnoma o‘tkazuvchiga admin tomonidan moderator roli beriladi.

Admin barcha so‘rovnomalarni, moderator esa admin tomonidan unga ruxsat berilgan so‘rovnomalarni boshqarish huquqiga ega.

Bazaga joylangan so‘rovnoma savollarini istalgan vaqtda bot orqali html formatda (html formatdagi faylni MS Excel dasturida ochish va tahrirlash mumkin) yuklab olish mumkin (2-rasm).



So‘rovnoma nomi	Savol	Javoblar
Sinov	O‘qituvchi haqida umumiy ma’lumotlar	
Sinov	Jinsingiz?	A) Ayol; B) Erkak
Sinov	Yoshingiz nechida?	A) 20-35; V) 36-45; S) 46-55; D) 55 dan katta

2-rasm. So‘rovnoma savollarini html formatda yuklab olish.

So‘rovnomaning ishga tushirish tartibi 3 xil:

- Faqat botda ishga tushirish;


- Faqat guruhda ishga tushirish;
- Botda va guruhda ishga tushirish.

Agar so'rovnomani botda ishga tushirishga ruxsat berilgan bo'lsa ixtiyoriy foydalanuvchi ushbu so'rovnomada ishtirok etishi mumkin.

Agar so'rovnomani telegram guruhida ishga tushirishga ruxsat berilgan bo'lsa uni quyidagi shartlar bajarilganda ishga tushiriladi:

- Oddiy foydalanuvchi ishga tushira olmaydi;
- Admin (@sodhaker) ixtiyoriy so'rovnomani ishga tushirishi uchun shu guruhdan ro'yhatdan o'tishi kerak, **@online_surovnoma_bot** ni guruhda admin sifatida ro'yhatga olinadi;
- Moderator admin tomonidan ruxsat berilgan so'rovnomani ishga tushirishi uchun shu guruhdan ro'yhatdan o'tishi kerak, **@online_surovnoma_bot** ni guruhda admin sifatida ro'yhatga olinadi.

Admin yoki moderator guruhda botni ishga tushirib undan kerakli so'rovnomani tanlaydi va ishga tushiradi. Telegram guruhidagi boshqa foydalanuvchilar so'rovnoma savollariga javob beradilar. So'rovnoma savoliga javob berilsa undan keyingi savol avtomatik ravishda chiqib boradi, bu holat toki so'rovnoma savollari tugamagunga qadar davom etadi. So'rovnomaga javob berish vaqti tugagandan keyin so'rovnomaga qatnashish imkoniyati to'xtaydi. So'rovnoma o'tkazuvchi tomonidan so'rovnoma natijalarini html formatda (html formatdagi faylni MS Excel dasturida ochish va tahrirlash mumkin) yuklab olish mumkin (3-rasm).



So'rovnoma nomi: Sinov, so'rovnomadagi savollar soni: 2, so'rovnoma boshlanish vaqti: 2025-05-19 19:57:21				
O'qituvchi haqida umumiy ma'lumotlar				
Jinsingiz?	A) Ayol	B) Erkak		
1	0	1		
Yoshingiz nechida?	A) 20-35	V) 36-45	S) 46-55	D) 55 dan katta
1	0	0	1	0

3-rasm. So‘rovnoma natijasini html formatda yuklab olish.

Xulosalar

@online_surovnoma_bot da ishtirok etilgan so‘rovnomalar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar ta’lim muassasalarida strategik rejalashtirish va o‘quv jarayonlarini yaxshilashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. So‘nggi yillarda onlayn so‘rovnomalar an’anaviy qog‘oz shaklidagi so‘rovnomalarga nisbatan ko‘proq afzalliklarga ega ekanligi isbotlangan.

Telegram kabi messenjer platformalari ta’lim sohasida keng qo‘llanilmoqda. Tadqiqotida Telegram botlarining ta’lim jarayonlarida avtomatlashtirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan. Botlar nafaqat ma’lumotlarni yig‘ish, balki foydalanuvchilar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, Telegram botlarining foydalanuvchi tajribasiga ijobiy ta’sirini ta’kidlash mumkin, chunki ular oddiy va intuitiv interfeysga ega.

Onlayn so‘rovnomalarning statistik tahlili bo‘yicha so‘rovnoma natijalarini tahlil qilish ta’lim jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

Ushbu tadqiqot Telegram botlari orqali onlayn so‘rovnomalarning ta’lim sifatini oshirishda samarali vosita ekanligini isbotladi. Botlar nafaqat ma’lumotlarni yig‘ish jarayonini avtomatlashtiradi, balki foydalanuvchilar uchun qulaylik va tezkorlikni ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash uchun onlayn so‘rovnomalardan kengroq foydalanish zarurligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentabr “2019-2021-yillar O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini oshirish to‘g‘risida”gi PF-5544-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyul “O‘zbekistonning yangi taraqqiy yo‘nalishidagi talim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108- son Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.07.2020, 20.06.6108/1483-son)

3. Inoyatov U. Ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish // J. Kasb-hunar ta'limi. T., 2004. –№1, – B. 2 –5.
4. Мартышенко С.Н., Н.С. Мартышенко. Методы повышения эффективности онлайн-опросов, используемых для анализа социально-экономических процессов // Вестник Тюменского государственного университета. Социальноэкономические и правовые исследования. 2017. Том 3. № 4. С. 71–85. DOI: 10.21684/2411-7897-2017-3-4-71-85.
5. Асонова Г.А., Баранова С.Е. Опыт проведения онлайн-опросов как показателей результатов качества обучения русскому языку как иностранному на подготовительном факультете // Мир науки. Педагогика и психология, 2020 №4, <https://mir-nauki.com/PDF/74PDMN420.pdf> (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ.
6. <https://www.testograf.ru/ru/blog/using-online-surveys-in-employee-training-assessment-and-development>.